

Date: 15th March-2025

YURIDIK DISKURSDA SUBYEKT

Xolida Ubaydullayeva Manopovna

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

[Tel:+998906365603](tel:+998906365603) xolidaubaydullayeva066@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunosligida kognitiv- diskursiv paradigma, diskursiv tahlil, yuridik diskurs, yuridik diskursda subyekt, yuridik diskurs va uning institutsional va personallik xususiyatlari, diskursda personallikni ko'rsatuvchi asosiy vazifalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: diskurs, tizimli-strukturaviy paradigma, deklarativ vazifa, subyekt, institutsionallik, personallik

Abstract: This article talks about the cognitive-discursive paradigm, discursive analysis, legal discourse, subject in legal discourse, legal discourse and its institutional and personal characteristics, the main tasks that show personality in discourse in world and Uzbek linguistics.

Key words: discourse, systemic-structural paradigm, declarative task, subject, institutionality, personality

Аннотация: В данной статье говорится о когнитивно-дискурсивной парадигме, дискурсивном анализе, юридическом дискурсе, субъекте в юридическом дискурсе, юридическом дискурсе и его институциональных и личностных характеристиках, основных задачах, которые проявляют личность в дискурсе в мировой и узбекской лингвистике.

Ключевые слова: дискурс, системно-структурная парадигма, декларативная задача, субъект, институциональность, личность.

Yetakchi lingvistik tahlillar qatorida diskursiv tahlil so'nggi o'n yillar davomida ustunlik qilib kelmoqda va bu umumlisoniy paradigmaning o'zgarishi bilan bog'liq. Agar tizimli-strukturaviy paradigma doirasida tadqiqot matn ichidagi aloqalarni aniqlash, tavsiflash, modellashtirish yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan bo'lsa, kognitiv-diskursiv paradigma doirasida tadqiqotchilarning qiziqishi matn va ma'no qurish jarayonlariga qaratilgandir. Yaxlit matnning mohiyati faqat lingvistik omillar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, kognitiv omillarga asoslangan holda aniqlana boshladi. Bunday anglash matn va diskurs tushunchalarining zamonaviy tavsiflanishiga asoslanadi.

Yuridik diskursning asosiy vazifalari orasida quyidagilarni ta'kidlash kerak: qonuniy, daliliy, axborot va deklarativ vazifalar. Ta'kidlash lozimki, ushbu tadqiqot matnida vazifa deganda tanqidiy diskurs-tahlil maktabi vakillaridan keyin (T. Van Deyk, I. Farklav) [1], ijtimoiy o'zaro ta'sir sohasidagi matn maqsadi tushuniladi, u adresat olamining ijtimoiy-huquqiy manzarasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni baholashni o'z ichiga oladi.



Date: 15th March-2025



Muntazamlilik darajasi bo'yicha birinchi o'rinni qonuniy vazifa egallaydi, zero, huquqiy diskursning ko'plab janr namunalari qabul qiluvchiga ko'rsatilgan harakatni amalga oshirish yoki uni bajarishdan bosh tortish haqida to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ko'rsatma (sud qarori, qonun, farmon)ni ifodalaydi. Muhimligi bo'yicha ikkinchi o'rinni axborot vazifasi egallaydi: yuridik diskursning har bir janri-bu qabul qilingan qaror, sodir bo'lgan fakt (sud qarori, qonun, qaror, shartnoma, shikoyat va boshqalar) to'g'risida xabarning bir turidir. Huquqiy diskursning axborot makonini shakllantirish uchun mazkur vazifa muhim ahamiyatga ega. Daliliy vazifa asosan sud diskursi janrlariga xosdir (sud qarori, sudyaning alohida fikri, shikoyat, advokatning nutqi va boshqalar) va shaxsiy pozitsiyasini asoslashga qaratilgan. Deklarativ vazifa u yoki bu darajada huquqiy diskursning har bir janrida amalga oshiriladi va ma'lum ijtimoiy, huquqiy qadriyatlar, g'oyalar va munosabatlarni targ'ib qilishni e'lon qilishda namoyon bo'ladi.

Yuridik diskursda "institusional va personallik" qarama-qarshiligi mavjud. Yuridik diskursni faqatgina institutsional diskurs sifatida ko'rib chiqish jahon tilshunosligi ilmiy adabiyotlarida keng tarqalgan bo'lib, (Karasik, 2000, Sheygal, 2000; Konovalova, 2008; Borisova, 2010; Kojemyakin, 2010.) [5] ularda institusionallik va prototipik belgilar subyektning shaxsiy ibtidosini olib tashlashning imkonsizligi tufayli personallik bilan o'zaro aloqaga kirishadi. R. Vodakning ta'kidlashicha, institusional diskurs sof shaklda nisbatan kam uchraydi [2]. Haqiqiy muloqotda, diskurslar aralashgan "mutatsiyaga uchraydi", shaxsiy ma'nolarning mavjudligi darajasi diskurs turiga va muloqot vaziyatiga qarab farqlanishi mumkin. Diskurs sofligi haqida masala, bizning fikrimizcha, huquqiy muloqotni o'rganishda katta qiziqish uyg'otadi va tadqiqotning asosiy muammosi sanaladi. Nazarimizda, yuridik diskursning bir qator janrlarida institusionallik va personallik bir-biriga qarama-qarshi emas, balki dialektik munosabatda bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, maqolamizda shaxs haqida emas, balki shaxslashtirilgan yuridik diskursni nazarda tutmoqdamiz: huquqiy diskursiv amaliyotlar har doim institutsional ko'rinishda muayyan institutsional rolli xususiyatlar tashuvchisi sifatida namoyon bo'luvchi subyekt ishtirokida amalga oshiriladi va u cheklangan muloqot mavzusi bilan bog'liq. Ushbu belgilar subyektning personal sohaga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Huquqiy diskursda institutsional va personal munosabatlarning nisbati bir necha omillar: subyektning diskursiv ekspert hamjamiyatiga qo'shilishi; diskurs paydo bo'ladigan madaniy muhit; subyektning institutsionalizatsiya darajasini belgilaydigan ma'lum bir jamiyat an'analari bilan belgilanadi.

Yuridik diskursda subyektning lisoniy maqomini aniqlashda personallik muhim ahamiyatga ega. Personallik – bu subyektning nutqdagi ishtiroki, u o'zining huquqiy mavqeyi, munosabatlari va rollarini qanday ifodalashi bilan bog'liq lisoniy hodisa. Yuridik matnlarda personallik nafaqat lingvistik, balki huquqiy tushunchalarni ham qamrab oladi, chunki bu subyektning huquqiy javobgarlik va majburiyatlarining nutqiy aksini ifodalaydi.

Yuridik diskursda personallikni ko'rsatuvchi asosiy jihatlar quyidagilar:

1. Grammatik shakllar:

Date: 15th March-2025

Subyektning personalligi odatda shaxs va zamon qo'shimchalari (I,II,III shaxs) orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "*Men shartnomani imzoladim*", degan jumlada birinchi shaxs subyektning shaxsiy ishtirokini aks ettiradi. Yuridik matnlarda esa uchinchi shaxs shakli ko'proq uchraydi ("*Tomonlar rozilik bildirishdi*").

Fe'lining shaxs va zamon qo'shimchalari subyekttni aniqlaydi va uning yuridik maqomini ko'rsatadi. Masalan, *talab qilaman, talab qilyapsiz, talab qiladi* kabi.

Zamon shakllari huquqiy xatti-harakatning yuz bergan vaqtini korsatish uchun qo'llanadi. Masalan, *murojaat qilgan edim, da'vo arizasi kiritmoqda, ko'rib chiqiladi* va boshqalar.

Egalik qo'shimchalari egalikni va subyektning huquqiy bog'liqligini ko'rsatadi: *Arizam, arizangiz, merosi, qarori, ijrosi* kabi.

2. Nutqiy uslub:

Yuridik diskursmatnlari rasmiy uslubda yoziladi, bu esa personallikni ko'pincha minimal darajada namoyon qiladi. Ammo muayyan holatlarda subyektning shaxsiy ishtirokini ifodalash uchun I shaxs (shikoyat, murojaat, guvohlik) ishlatiladi.

3. Huquqiy maqom va rol:

Yuridik diskursda subyektning personalligi uning roliga bog'liq. Misol uchun: Fuqarolik huquqi: "*javobgar*", "*da'vogar*" kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Jinoyat huquqi: "*gumon qilinuvchi*", "*ayblanuvchi*", "*guvoh*".

4. Obyektivlik va anonimlik:

Ko'pincha yuridik nutqda subyektning lisoniy ifodasi obyektiv shaklda bo'ladi. Misol uchun, sud hujjatlarida shaxsiy hissiyotlar va subyektiv fikrlar cheklanadi.

5. Subyektning o'zini anglash darajasi:

Yuridik jarayonda subyekt o'zini boshqa tomonlar bilan taqqoslaydi, huquqiy maqomini aniqlaydi va o'z fikrlarini aniqlik bilan ifodalaydi. Bu personallikning darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

6. Modal birliklar:

Subyektning maqsadi va huquqiy majburiyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi:

Kerak, lozim, shart, mumkin kabi so'zlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuridik diskursda personallik subyektning lisoniy maqomini aniqlashda uning grammatik shakllar, nutq uslubi va huquqiy rol orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Grammatik birliklar va uslubning namoyon bo'lishi esa yuridik diskursning rasmiyligini, barcha uchun aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun ishlatiladi. Shaxsiy ishtirok ko'proq huquqiy mavqeyi va vaziyatga bog'liq ravishda farqlanadi, bu esa lisoniy tahlilda muhim vosita sifatida qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ван Дейк Т. А. (1998). К определению дискурса. [WWW-документ] URL <http://www.nsu.ru/psych/internet/bits/vandijk2.html>

2. Водак, Р. Язык. Дискурс. Политика [Текст]/ Р. Водак. - Волгоград : Перемена, 1997. 139 с.



Date: 15th March-2025

3. Даулетова, В. А. Вербальные средства создания автоимиджа [Текст] : автореф. дис. ... канд. филол. наук : 10.02.20 / В. А. Даулетова. - Волгоград, 2004. - 22 с.
4. Фуко М. Археология знания. Ника-Киев, 1996.
5. Карасик, В. И. Структура институционального дискурса [Текст] / В. И. Карасик // Проблемы речевой коммуникации. - Саратов : Изд-во СГУ, 2000а. - С. 25-33.
6. Русакова, О. Ф. PR-Дискурс : Теоретико-методологический анализ / О. Ф. Русакова, В. М. Русаков. - Екатеринбург : Изд-во УрО РАН, Ин-т междунар. связей, 2008. - 340 с
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006.
8. www.wikipedia.uz

